

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**JURAXUJAYEV DAVRONXO‘JA DAVERXO‘JA O‘G‘LI**

**GEOGRAFIYA DARSLARIDA MUAMMOGA ASOSLANGAN  
O‘QITISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH  
(8-9-sinflar misolida)**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Juraxujayev Davronxo‘ja Daverxo‘ja o‘g‘li**

Geografiya darslarida muammoga asoslangan o‘qitishning metodik tizimini  
takomillashtirish (8-9-sinflar misolida)..... 3

**Джурахужаев Давронхужа Даверхужа угли**

Совершенствование методической системы проблемно-ориентированного  
обучения на уроках географии (на примере 8-9 классов)..... 23

**Jurakhujaev Davronkhoja Daverkhoja ogli**

Improving the methodological system of problem-based learning in geography  
lessons (based on the example of grades 8-9)..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI KENGASH ASOSIDAGI BIR  
MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**JURAXUJAYEV DAVRONXO‘JA DAVERXO‘JA O‘G‘LI**

**GEOGRAFIYA DARSLARIDA MUAMMOGA ASOSLANGAN  
O‘QITISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH  
(8-9-sinflar misolida)**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Ped11386 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet.uz" Axborat - ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yarashev Quvondiq Safarovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Usmanov Ma'rufdjan Rustamovich**  
geografiya fanlari doktori, dotsent

**Qorayev Samariddin Barakaevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 30-aprel soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (+99899) 776-77-25, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborat - resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 233-60-87

Dissertatsiya avtoreferati 18-aprel 2026-yil tarqatildi.  
(2026-yil 16-apreldagi №1-raqamli restr bayonnomasi).

**S.B. Abbasov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

**B.A. Meliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
Ilmiy kengash kotibi, g.f.f.d. (PhD), dotsent

**M.R. Usmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy  
seminar raisi, g.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, xususan o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy va tahliliy yondashuvlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodikalarni keng qo'llashga e'tibor qaratilishi, zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu yondashuvlarning ahamiyatini oshirib, ta'lim sifatini yuksaltirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ayniqsa ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytirish, bilish faoliyatini faollashtirish, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, kognitiv ehtiyojlari va ijtimoiy-psixologik holatlarini hisobga olish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali o'quvchilarda yuqori darajadagi kompetensiyalarni shakllantirish, zamonaviy ta'limni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish hamda ta'lim samaradorligini yuksaltirishga qaratilgan izlanishlar ustuvor vazifalarga aylanmoqda.

Dunyo miqyosida ilmiy va ta'lim muassasalari hamda xalqaro tadqiqotlarda muammoga asoslangan o'qitishni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, o'quvchilarda hayotiy muammolarni hal etish, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlarning "Education 2030" va "Future of Education and Skills 2030" loyihalari doirasida ta'limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish, o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirish, shuningdek muammoga asoslangan o'qitishning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslash bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar global ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan ta'lim jarayoniga muammoga asoslangan o'qitishni keng tatbiq etish, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalar va barqaror rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish hamda innovatsion ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni yanada kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimining sifat va samaradorligini oshirish, ta'lim bosqichlarida zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, ta'lim hamda ilm-fan o'rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirishda asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "...o'quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o'z bilim va ko'nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o'rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish"<sup>1</sup> vazifasi belgilanganligi ushbu jarayonning dolzarbligini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, xususan, muammoga asoslangan o'qitish texnologiyasini milliy ta'lim tizimiga

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.

moslashtirish, uni metodik jihatdan ilmiy asoslab berish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” kabi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda geografiya fanini metodik jihatdan takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, didaktik materiallar, texnik vositalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarda tadqiqotchilik, ijodkorlik va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha O.Muminov, X.Vaxobov, R.Qurbonniyozov, M.Nabixonov, P.Musayev, M.Yunusova, Q.Bahromov, X.Nikadamboyeva, F.A.Xamroyeva, D.N.Abdullayeva, F.Rajabov, O.Abdimurotov, S.A.Haydarova, F.R.Saydamatov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Bundan tashqari, muammoga asoslangan o‘qitishning didaktik imkoniyatlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, loyihaviy ta’lim metodikasining samaradorligini oshirish, innovatsion ta’lim muhitida o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda interfaol metodlar orqali talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari bo‘yicha A.A.Ibragimov, R.X.Djurayev, G.Sh.Fayzullayeva, T.Ch.Aliboyev, G.N.Ibragimova, T.Aliboyev, M.Usmonboyeva, A.Aripdjanova, M.Usmonboyeva va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari mazkur yo‘nalishning nazariy-metodik asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Muammoga asoslangan o‘qitish va uning didaktik modellari, uslubiy xususiyatlari, samaradorligi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati, shuningdek, talabalarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishdagi hamda o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonidagi o‘rni bo‘yicha MDHning S.T.Nurtazin, A.A.Nesterenko,

A.Yu.Pigarev, G.S.Gabdullina, V.N.Petrova, T.V.Pashchenko, Y.N.Koreshnikova, E.G.Tikhonova, I.E.Idiyatov kabi olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Xorijiy mamlakatlar pedagogik amaliyotida muammoga asoslangan o'qitish (Problem-Based Learning – PBL) yondashuvi keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlarning obyektiga aylangan. Xususan, H.Barrows, J.Desabi, Y.Doppelt, J.Piaget, L.Vygotskiy, J.Dewey, J.Savery, H.Schmidt, S.Hmelo-Silver, B.Duch, D.Jonassen, G.Maudsley kabi olimlarning tadqiqotlarida muammoli ta'limning metodologik asoslari tizimli yoritilgan bo'lib, unda muammoli vaziyatlar orqali o'quvchilarning mustaqil va refleksiv fikrlashi hamda kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlari ilmiy asoslangan.

Muammoga asoslangan o'qitishning nazariy-metodik asoslari va didaktik imkoniyatlari bo'yicha nazariy manbalar mavjud bo'lsa-da, ushbu texnologiyani geografiya ta'limi mazmuniga chuqur integratsiya qilish, uni amalga oshirishga qaratilgan innovatsion modellar ishlab chiqish va dars jarayonlarini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodik bo'shliqlar saqlanib qolayotganligi mazkur sohadagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy geografiyaning innovatsion rivojlanishi va uning ilmiy-uslubiy asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** sifatida quyidagilar belgilandi:

geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish modelini maqsadli algoritmik tizimlashtirish asosida takomillashtirish;

geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishni qo'llash metodikasini takomillashtirish;

muammoga asoslangan o'qitish metodikasi samaradorligini baholash mezonlarining jarayonni tizimlashtiruvchi omillarga korrelyativ bog'liqligi asosida aniqlashtirilgan.

**Tadqiqot obyekti** sifatida geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga respublikamizning Jizzax, Samarqand, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahridan umumiy hisobda 740 nafar o'quvchi jalb qilingan.

**Tadqiqot predmeti** geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish mazmuni, vositalari, shakl va metodlari.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida o'quv me'yoriy hujjatlar, o'quv metodik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, tashxislash, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa so'rovnoma, ilmiy umumlashtirish, modellashtirish matematik-statistik tahlil hamda tajriba-sinov usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari o'quvchilarda fazoviy tasavvur, analitik kompetensiya va tadqiqiy tayyorlikni o'quv faoliyatini geografik muammolar, ochiq geoma'lumotlar va raqamli vositalar bilan uyg'unlikda faol izlanishga yo'naltirilgan metakognitiv modellashtirish asosida aniqlashtirilgan;

muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish modeli maxsus o'quv dasturlarini yaratish orqali o'quvchilarda geografik tafakkur, dalillash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni hududiy muammolarni aniqlash, tadqiq qilish hamda sabab-oqibat munosabatlariga bog'liqlikda maqsadli algoritmik tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan;

geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishni qo'llash metodikasi muammoning aniqlanganligi, tahlil chuqurligi, dalillar sifati, yechim ilmiyligi va xaritalashga yo'naltirilgan belgilar orqali tahlil qil (ATS), matndagi kalit (KiT), his qilmoq (felling), tahliliy fikrlash (AT), kumulyativ guruh, rasmi jumboq (pictorial puzzle) metodlarini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

muammoga asoslangan o'qitish metodik tizimi samaradorligi geografik ma'lumotlarni tushunish, kognitiv moslashuvchanlik, jamoda ishlash va tadqiqotchilik mezonlarining muammolarni identifikatsiyalash, kartografik vizuallashtirish, konstruktivistik argumentlash, mintaqaviy, assotsiativ fikrlash va kompleks tizimlashtirish omillariga korrelyativ bog'liqligi asosida aniqlashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ta'limda muammoga asoslangan o'qitish (PBL) yondashuvining genezisi ilmiy jihatdan tahlil qilinib, pedagogik amaliyotdagi evolyutsiyasi vizual tarzda umumlashtirilgan.

geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish jarayonini tizimli tarzda ifodalovchi, uning mazmuni, bosqichlari hamda amaliy tatbiq etish mexanizmlarini o'zida mujassamlashtirgan amaliy-funksional model takomillashtirilgan.

geografiya darslarida o'quvchilarni faollashtirish, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni bartaraf qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy metodlar ishlab chiqilgan.

geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishga doir "Jahon iqtisodiy geografiyasi" va "Umumiy tabiiy geografiya (amaliy mashg'ulotlar)" nomli o'quv qo'llanmalar, modulli dars ishlanmalari hamda ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishga tizimli yondashilganligi, metodologik tamoyillarga tayanilganligi, psixologiya, pedagogikaga oid bilimlarga asoslanilganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi tasdiqlanganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati geografiya ta'limida muammoga asoslangan o'qitishning nazariy va metodologik asoslari tizimli ravishda yoritilib uning mazmuni tamoyillari hamda o'ziga xos jihatlari aniqlashtirilgani muammoli vaziyatlar yaratish bosqichlari va ularni samarali hal etish mexanizmlari asoslangani orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan dalillangan hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish yo'llari chuqur tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodik tizim va tavsiyalar umumta'lim maktablarida geografiya darslarini tashkil etish uchun xizmat qilishi dars ishlanmalari muammoli topshiriqlar va baholash mezonlari amaliyotga joriy etilishi o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytirishi hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishi orqali yuqori natijalarga erishish imkonini berishi bilan ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagilar joriy qilindi:

geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari o'quvchilarda fazoviy tasavvur, analitik kompetensiya va tadqiqiy tayyorlikni o'quv faoliyatini geografik muammolar, ochiq geoma'lumotlar va raqamli vositalar bilan uyg'unlikda faol izlanishga yo'naltirilgan metakognitiv modellashtirishga doir ma'lumotlar "Umumiy tabiiy geografiya (amaliy mashg'ulotlar)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug'iga asosan taqdim etilgan 500800-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimi o'quvchilarning fazoviy tasavvur, analitik kompetensiya va tadqiqiy tayyorlik ko'nikmalarini metakognitiv modellashtirish asosida takomillashtirilgan;

muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish modeli maxsus o'quv dasturlarini yaratish orqali o'quvchilarda geografik tafakkur, dalillash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni hududiy muammolarni aniqlash, tadqiq qilish hamda sabab-oqibat munosabatlariga bog'liqlikda maqsadli algoritmik tizimlashtirishga oid mualliflik g'oyalari "Jahon iqtisodiy geografiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmunida o'z ifodasini topgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-sonli buyrug'iga asosan taqdim etilgan 992825-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, muammoga asoslangan o'qitish modeli tizimli yondashuv asosida mazmunan takomillashtirilgan;

geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishni qo'llash metodikasi muammoning aniqlanganligi, tahlil chuqurligi, dalillar sifati, yechim ilmiyligi va xaritalashga yo'naltirilgan belgilar orqali tahlil qilish (ATS), matndagi kalit (KiT), his qilmoq (felling), tahliliy fikrlash (AT), kumulyativ guruh, rasmi jumboq (pictorial puzzle) metodlarini integratsiyalashga doir taklif va tavsiyalar "Jahon iqtisodiy geografiyasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy

ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-sonli buyrug'iga asosan taqdim etilgan 992825-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizmi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan holda takomillashtirilgan;

muammoga asoslangan o'qitish metodik tizimi samaradorligi geografik ma'lumotlarni tushunish, kognitiv moslashuvchanlik, jamoada ishlash va tadqiqotchilik mezonlarining muammolarni identifikatsiyalash, kartografik vizuallashtirish, konstruktivistik argumentlash, mintaqaviy, assotsiativ fikrlash va kompleks tizimlashtirish omillariga korrelyativ bog'liqligiga oid ma'lumotlar "Umumiy tabiiy geografiya (amaliy mashg'ulotlar)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug'iga asosan taqdim etilgan 500800-son nashr ruxsatnomasi) Natijada, o'quvchilarda geografik ma'lumotlarni tushunish, kognitiv moslashuvchanlik, jamoada ishlash va tadqiqotchilik mezonlari bilan bog'liq ko'nikmalar rivojlantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta respublika va 2 ta xalqaro miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 26 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 4 ta, xorijiy ilmiy jurnallarda 5 ta, shuningdek, 2 ta xalqaro jurnalda, 10 ta respublika konferensiyasida, 2 ta xalqaro konferensiyada, 2 ta o'quv qo'llanma hamda 1 ta uslubiy qo'llanma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, 136 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ta'kidlangan, uning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi qayd etilgan, ishning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning amaliyotda joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitish yondashuvini qo'llashning nazariy asoslari**", deb nomlangan **birinchi bobida** ta'limda muammoga asoslangan o'qitish yondashuvining tarixiy genezisi, muammoga asoslangan o'qitishning pedagogik, psixologik va metodik manbalardagi zamonaviy yondashuvlari, umumta'lim maktablari geografiya

darslarida muammoga asoslangan o'qitishni qo'llashning joriy holati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Zamonaviy ta'lim jarayonida amaliy tajriba va ko'nikmalarning yetishmasligi ta'lim oluvchilarning rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan o'quvchilarda muayyan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy o'qitish usullari tobora ommalashib bormoqda. Bir qator xorijiy davlatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilayotgan ana shunday texnologiyalardan biri muammoga asoslangan o'qitish (MAO') sanalib, keyingi yillarda ko'plab olimlar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida chuqur o'rganilmoqda hamda ilgari surilgan g'oyalar, nazariyalar, qarashlar tajribada sinab ko'rish orqali amaliyotga singdirilmoqda.

Ushbu yondashuv bir qarashda biz doimiy qo'llab kelayotgan "muammoli ta'lim" yoki "muammoli o'qitish" usulini takrorlashi mumkin, ammo o'rganilgan ma'lumotlar tahlili ularni aynan bir xil emasligini ko'rsatadi.

Mazkur yondashuv o'quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilib, bilimlarni tayyor holatda o'zlashtirishdan ko'ra, ularni mustaqil izlashga va muammoli vaziyatlar orqali egallashga, shuningdek, hayot faoliyatida qo'llay olishga o'rgatadi. MAO' asosida o'quvchilarning bilish faolligi kuchayadi, tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, muammolarni hal qilish hamda asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Mazkur o'qitish usuli so'nggi ta'lim tendensiyasi emas, uning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra muammoga asoslangan o'qitish yondashuvi o'tmishdagi bir qancha faylasuf va pedagoglarning ilmiy faoliyatida chuqur ildizlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Aniqsa bu borada g'arb va sharqdagi eng mashhur qomusiy allomalarning ilmiy merosi ushbu yondashuv genizisida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. To'g'ri ularning ko'pchiligi hozirgi MAO' yondashuvini alohida o'rganishmagan, ammo ularning ta'lim falsafasi va nazariyasi mazkur yondashuvning bir qator tamoyillari bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Muammoga asoslangan o'qitish yondashuvi dastlab 1960-yillarning oxirida Makmaster universitetida tibbiy o'quv dasturiga kiritilgan. Unda odatiy ma'ruzalar o'rniga talabalarga haqiqiy bemor ssenariylarini taqdim qiladigan klinik holatlar yoki muammolar taqdim etilgan. Bu muammolar talabalarning bilim olishi uchun asos bo'lib xizmat qildi, chunki ular kichik guruhlarda hamkorlikda asosiy masalalarni aniqlash, gipotezalarni yaratish va muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishdi.

Makmaster universitetida MAO'ning dastlabki muvaffaqiyati uni butun dunyo bo'ylab boshqa tibbiyot maktablarida qabul qilinishiga olib keldi. Vaqt o'tishi bilan mazkur yondashuv tibbiy ta'limdan tashqari, hamshiralik, muhandislik, biznes, ta'lim kabi boshqa sohalarga ham kirib bordi va o'quvchilarda faol o'rganish, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash hamda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik texnologiya sifatida ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etildi.

Hozirgi kunda muammoga asoslangan o'qitish yondashuvi dunyoning ko'plab ta'lim muassasalarida keng qo'llanilayotgan zamonaviy o'qitish usullaridan biri hisoblanadi. U ko'pincha an'anaviy ma'ruza asoslangan ta'limga qo'shimcha yoki muayyan holatlarda ularning o'rnini bosuvchi muqobil yondashuv sifatida qo'llanilib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning kompetensiyaviy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida muammoga asoslangan o'qitishni qo'llashning joriy holatini aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar hamda o'quv adabiyotlari tahlili amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri tomonidan 2023-yil 15-mayda qabul qilingan 125-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasi tahlil qilindi (1-jadval). Ushbu tahlil doirasida geografiya faniga ajratilgan o'quv soatlari hamda ulardagi muammoli vaziyatlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlari ilmiy-metodik jihatdan baholandi.

### 1-jadval

#### 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasi Geografiya darslariga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi


Sinflar	Haftasiga o'tiladigan soat	Ajratilgan soat	Umumiy soatning taqsimlanishi:				
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Umum-chi dars	Nazorat ishi	Loyiha darsi
V	1	34	24	4	2	4	
VII	2	68	47	8	5	8	
VIII	1,5	51	47	1,5	0,5	2	
IX	1,5	51	45,5	1	1	3,5	
X	2	68	46	9	4	8	1
Jami (o'quv yili davomida):		272	209,5	23,5	12,5	25,5	1

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda mamlakatimiz umumta'lim maktablarida geografiya fanining barcha kurslari bo'yicha darslarni tashkil etishda asosan nazariy bilimlarni yetkazishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Amaliy faoliyatga, muammoli vaziyatlar asosida fikrlashni rivojlantirishga hamda o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga yo'naltirilgan yondashuvlar yetarli darajada qo'llanilmayapti. Xususan, muammoga asoslangan o'qitish yondashuvi hozircha o'qituvchilar faoliyatiga to'liq kirib bormagan bo'lib, faqatgina u haqida umumiy xabardorlik hissi mavjud.

**“Geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning amaliy-metodik imkoniyatlari”**, deb nomlangan **ikkinchi bobida** geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish modeli, hamda 8-9-sinf geografiya darslarini muammoga asoslangan o'qitish yondashuvi asosida tashkil etish masalalari tadqiq etildi.

Geografiya darslarida MAO' samaradorligini oshirish uchun amaliy-funksional model ishlab chiqildi (1-rasm). Mazkur model muammoga asoslangan

o'qitishni yaxlit yondashuvda tashkil etish uchun nazariy tamoyillarni amaliy qo'llanmalar bilan birlashtiradi.



1-rasm. Geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirish modeli

Taklif etilayotgan model “Maqsadli”, “Konseptual”, “Tashkiliy texnologik” hamda “Diagnostik baholash”ga doir komponentlardan tashkil topgan.

Mazkur modelda tadqiqot ishining mazmunidan kelib chiqib “Geografiya darslarida muammoga asoslangan o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirish” maqsad qilib olindi.

Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar belgilab olindi. Jumladan:

- muammoli vaziyatlarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- geografik jarayonlarni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- ta’lim metodlari orqali amaliy izlanish, ijodkorlik va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Amaliy-funksional model konstruktiv va muammoga asoslangan ta’lim kabi zamonaviy ta’lim nazariyalariga asoslanadi va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur modelda kompetensiyaviy, integratsion, shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar asosiy strategik yo‘nalish sifatida tanlab olingan.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonining zamonaviy konsepsiyalaridan biri bo‘lib, o‘quvchining nafaqat nazariy bilimlarni egallashini, balki ularni amaliy kontekstlarda qo‘llash, turli muammoli vaziyatlarni hal etish va ijtimoiy hamda kasbiy faoliyatda samarali ishlatish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyadir.

Mazkur yondashuvning pedagogik asosini faoliyatlilik tamoyili tashkil etadi. Bu tamoyilga ko‘ra, o‘quvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘z bilish faoliyati va ijodiy harakatlari orqali egallovchi sub’ekt sifatida qaraladi.

Integratsion yondashuv o‘quvchilarning turli fanlar va bilim sohalarini birlashtirish, ularning o‘zaro bog‘liqligini anglash va murakkab masalalarni multidisiplinar tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyadir.

Ushbu yondashuv integrativlik tamoyiliga asoslanib, ta’lim mazmunini tizimli, uzviy va bog‘langan shaklda tashkil etadi. O‘quv jarayonida o‘quvchi bir fan doirasidagi nazariy bilimlarni boshqa fanlar bilan solishtiradi, umumiy tamoyillarini aniqlaydi va ularni murakkab vazifalarni hal etishda amalda qo‘llaydi. Shu tarzda, fanlararo tafakkur, tizimli fikrlash va kompleks masalalarni yechish strategiyalari shakllanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim jarayonini o‘quvchining individual xususiyatlari, qobiliyatlari va rivojlanish sur‘atiga moslashtirishga qaratilgan pedagogik strategiyadir. Ushbu yondashuv individuallashtirish va hamkorlik tamoyillariga tayangan bo‘lib, o‘quvchiga shaxsiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqish va guruh ichida samarali hamkorlik qilish imkonini beradi. O‘quv jarayoni o‘quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan, shu bilan birga guruhdagi hamkorlik faoliyati orqali o‘zaro bilim almashish va tajriba orttirishga yo‘naltiriladi.

Refleksiv yondashuv o‘quvchilarning o‘z bilish faoliyati, amaliy ishlar va natijalarni tanqidiy tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyadir. Ushbu yondashuv onglik va refleksivlik tamoyiliga asoslanib, o‘quvchiga o‘z faoliyatini muntazam ravishda

baholash, takomillashtirish va metakognitiv strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar o'z ish faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish orqali bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtiradilar, shu bilan birga faoliyatini yanada samarali tashkil etishga o'rganadilar.

Modelning tashkiliy-texnologik komponenti o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning bilim, ko'nikma hamda kompetensiyalarini kompleks shakllantirishga qaratilgan bo'lib bir necha asosiy bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

Ta'lim shakllari: o'quv jarayoni sinfda va tabiat qo'ynida olib boriladi. Ta'lim shakllarining turli formatlarda tashkil etilishi o'quvchilarda tabiiy muhitdagi bilimlarni mustahkamlash va ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy holatlarni tahlil qilish imkonini beradi.

O'qitish vositalari: dars jarayonida turli didaktik materiallar va axborot manbalari qo'llaniladi. Bular qatoriga darsliklar, xaritalar, atlaslar, globuslar, geografik atamalar lug'ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar (taqdimotlar), tarqatma materiallar, audio, video, fotolavhalar, jadvallar va boshqa shu kabi vositalar kiradi. Ushbu vositalar o'quv jarayonini vizual va interaktiv tarzda boyitib, mavzularni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Ta'lim texnologiyalari: metodik jihatdan samarali vositalar sifatida matndagi kalit, his qilmoq, keys-stadi, loyiha ishi, tanqidiy tahlil, analitik xarita, rasmi jumboq, SWOT tahlil kabi faol metodlar qo'llaniladi. Ushbu metodlarni tanlab olishda va qo'llashda avvalo o'quvchilarning yoshi, ilmiy salohiyati va hududning tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy holatlari hisobga olinsa ularning ta'sir doirasi shuncha kengayib boradi.

Diagnostik baholashga doir komponent samaradorlikni aniqlash va o'quvchilarning faoliyatini tizimli tarzda tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu komponent ma'lumotlarni tushunish va tahlil qilish, muammolarga nisbatan kognitiv moslashuvchanlik, jamoada ishlash hamda tadqiqotchilik kabi mezonlarni o'z ichiga oladi. Har bir mezon o'quvchilarning baholanish darajalariga ko'ra yuqori, o'rta va quyi sifatida aniqlanadi.

Geografiya darslarida muammoga asoslangan o'qitishning metodik tizimini takomillashtirishning amaliy-funksional modeli ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishga tizimli va integratsiyalashgan yondashuvni taklif etadi. Ushbu model o'quvchilarning kognitiv, amaliy va tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan strategiyalarni birlashtirib, dars jarayonining interaktivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muammoga asoslangan o'qitishda innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga va mazmunan boyitishga xizmat qiladi. Shu boisdan tadqiqot davomida muallif tomonidan quyidagi bir qator metodlar ishlab chiqildi va 8-9-sinf geografiya darslariga integratsiya qilish asosida tahlil qilinib, ularning didaktik ahamiyati hamda amaliy natijadorligi ilmiy asoslangan holda yoritildi.

**Belgilar orqali tahlil qil (Analyze through symbols)** metodi tabiiy resurslar, xususan, qurilish materiallari va ularning hududiy tarqalishini shartli belgilar yordamida tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarga ma'lumotlarni tizimli

ravishda tahlil qilish, vizual ifodalash va bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

**Qo'llanilishi:** mazkur metodni qo'llashda o'quvchilar jamoasiga biror bino yoki inshoot berilib unga qanday turdagi qurilish materiallari ketganligini maktab o'quv atlasidagi shartli belgilar asosida topish va unga hududiy tavsif berish topshirig'i berilishi mumkin. Bu orqali o'quvchilar birinchi navbatda, uyni qurishda qanday mahsulotlar kerak bo'lishini nazariy jihatdan (fan doirasida) bilib olishlari, ikkinchi navbatda esa aynan ana shu qurilish materiallari mamlakatimizning qaysi hududlarida ko'plab uchrashi haqidagi bilimlarni chuqur egallab olishlari mumkin bo'ladi. Qolaversa, topshiriqda qurilish materiallarining nomi emas faqatgina xaritada ko'rinishi, ya'ni shartli belgisi berilganligi o'quvchilarning eslab qolish ko'nikmasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**Matndagi kalit (Klue in text)** – o'quvchilarning qiziqishini oshirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish, hamkorlikda ishlashni kuchaytirish va ta'limning interfaolligini ta'minlashga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik metod hisoblanadi.


**Qo'llanilishi:** o'quvchilarga mavzuga oid mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi savol beriladi. Ular savolning javobini topib, parollangan faylni ochgan holda, unda joylashtirilgan mavzuga oid topshiriq, loyiha ishi yoki keys bilan ishlaydilar. Ushbu metodni muvaffaqiyatli qo'llash uchun parol topish vazifasining murakkablik darajasini o'quvchilarning imkoniyatlariga (ilmiy hamda fiziologik xususiyatlar) moslashtirish zarur. Shuningdek, metod boshqa interfaol usullar bilan uyg'unlashtirilsa, dars jarayoni yanada boyitiladi va samarali bo'ladi.

**His qilmoq (Felling)** - bu ta'lim jarayonida o'quvchilarning sezgi a'zolari (eshitish, ko'rish, tegish, hid va tam bilish) orqali bilim olishlarini ta'minlaydigan ta'lim metodidir. Mazkur metod o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki ularni hayotiy ko'nikmalarga aylantirishni ham ta'minlaydi.

**Qo'llanilishi:** o'quvchilarga mavzuga oid material (M: qurilish materiallari) raqamlangan qog'oz stakanlar ostida taqdim etiladi. O'quvchilar ko'zlari bog'langan holda qurilish materiallaridan birini tanlab sezgi a'zolari orqali uni topishlari va u haqida ma'lumot berishlari hamda yakka tartibda yoki jamoa bo'lib ushbu materialning geografik tarqalishi (yoki ishlab chiqarilishi) shuningdek, qanday maqsadlarda ishlatilishi haqida batafsil ma'lumot berishlari kerak bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimni o'zlashtirib qolmay, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Ular qurilish materiallarini tanib olish, ularning tabiiy resurslar bilan bog'liqligini tushunish va to'g'ri qo'llashning ahamiyatini anglashadi. Shuningdek, bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi organlarini jalb qilgani uchun o'zlashtirish jarayonining samaradorligi ham sezilarli darajada ortadi.

**Kumulyativ (Yig'ish, to'plash) guruh** - o'quvchilarning intellektual salohiyati, ijtimoiy faolligi va shaxsiy kamolotini rivojlantirishga qaratilgan metod bo'lib, ta'lim jarayonida samarali hamkorlikni ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

**Qo'llanilishi:** o'quvchilar jamoasiga mavzuga a'loqador muammoli savol beriladi. Jarayonning boshlanishi odatda mavzuni individual tarzda o'ylashdan boshlanadi. Shaxsiy mulohazadan so'ng juftliklar tuziladi, ular o'z mulohazalarini bo'lishadi. Keyingi bosqichda juftliklar boshqa juftlikka qo'shiladi. Bunda oldingi muhokamaga asoslanib, ikki juftlik tomonidan tuzilgan guruh o'rtasida umumiy to'xtamga kelish uchun yana muhokama olib boradi. Shundan so'ng, to'rt kishidan iborat guruh yana to'rt kishilik guruh bilan birlashadi va muhokama qilinayotgan mavzu bo'yicha umumiy fikrni shakllantirishda davom etadi. Guruhlarni birlashtirish umumiy bir guruhni tashkil qilmaguncha davom etadi (2-rasm).



**2-rasm. Kumulyativ guruh metodi sxemasi**

**Rasmi jumboq (Pictorial puzzle) metodi** - asosan vizual va assotsiativ fikrlashni faollashtirish uchun qo'llaniladi. Ushbu metod bolalar va yoshlar o'rtasida ayniqsa mashhur bo'lib, o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi va kreativ o'rganishga jalb qiladi.

**Qo'llanilishi:** o'quvchilar jamoasiga mavzuda keltirilgan davlatlar yashiringan mantiqiy mazmunga ega rasmlar yoki belgilar taqdim etiladi. Ular rasmlardagi mantiqiy ifodalarni topgan holda davlatlarni topshi keyin esa ushbu davlatlar haqida umumiy ma'lumot berishlari kerak. Mazkur metod o'quvchilar diqqatini jalb qilish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ularda assotsiatsiya qilish qobiliyatini shakllantirishga mo'ljallangan. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish nafaqat o'qituvchilarga mavzuni tushuntirishda yordam beradi, balki o'quvchilarning bilim olish jarayoniga faol ishtirokini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

**Tanqidiy tahlil (Critical analysis)** - zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va analitik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metod bo'lib, o'quv jarayonida mavzuni har tomonlama tahlil qilish, dalillarni baholash va xulosalar chiqarish imkonini beradi.

**Qo'llanilishi:** O'quvchilar jamoasi guruhlarga bo'linib, transport turlarini tahlil qiladi va tanqidiy yondashuv asosida o'z xulosalarini taqdim etadi. Har bir bildirilgan fikrga boshqa jamoalar o'zlarining tanqidiy qarashlari orqali fikr bildirishadi. Topshiriq yakunida butun sinfda taqdimotlar baholanadi va umumiy

xulosalar chiqariladi. Tanqidiy tahlil metodi o'quvchilarni mavzuni chuqur o'rganishga va o'z qarashlarini asoslashga o'rgatadi. Ushbu metod o'quvchilarni nafaqat mavzuni chuqur o'zlashtirish balki, o'z bilimlarini tahlil qilish, dalillarni tanqidiy baholash va asosli xulosalar chiqarishga undaydigan samarali ta'lim metodi sifatida ahamiyatlidir.

Bundan tashqari jahon tajribasida keng qo'llanilib kelinayotgan keys-stadi, loyiha ishi, SWOT tahlil, charxpalak analitik xarita va boshqa shu kabi metodlar ham dars jarayonida faol qo'llanilib ularning samaradorligi aniqlashtirildi.

Ta'lim jarayonini yuqoridagi kabi metodlar asosida tashkil etish darsning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Metodlarning xilma-xilligi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirib, mavzuni chuqur o'zlashtirishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalari ham shakllanadi. Bunday yondashuv ta'limning zamonaviy talablari va darsning asosiy maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

